

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI**

“BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT” KAFEDRASI

“MOLIYAVIY HISOB” FANIDAN

KURS ISHI

**MAVZU: TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR INVENTARIZATSIYASI, UNING
NATIJALARI HISOBİ**

(“SURXON DORI-DARMON” MCHJ misolida)

Bajardi: KTB-112 gurux talabasi

Odinakulova Yulduz.

Kurs ishi raxbari: katta o'qit. M.B.Annayev

SAMARQAND – 2015

CTB-112 гурж (м-тар) талабси Ориндунд
Иаруунинг ТАКРИЗ лар инвентаризациясы ва
ушунчиги нотичеларининг фуроо
мавууирини кура шунга
ТАКРИЗ

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I-BOB. TOVAR - MODDIY BOYLIKLAR INVENTARIZATSIYASINING MOHIYATI, AHAMIYATI VA VAZIFALARI

1.1.Tovar moddiy zaxiralarining mohiyati, turkumlanishi va ularning korxona xo'jalik faoliyatidagi roli.....	5
1.2.Tovar moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi mazmuni ,turlari va o'tkazish tamoillari.....	18

II-BOB. TOVAR - MODDIY ZAXIRALARNING HISOBI VA UNING INVENTARIZATSIYASINI TASHKIL ETISH

2.1.Tovar moddiy zaxiralarning ombor hisobi va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari.....	22
---	----

2.2.Tovar moddiy zaxiralari inventarizatsiyasi natijalarini rasmiylashtirish va xisobga olish tartibi.....	26
---	----

XULOSA.....	31
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	33
---------------------------------------	-----------

ILOVALAR	35
-----------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarining birida: "Iqtisodiyot barqaror ishlab turgan taqdirdagina bozor munosabatlariga o'tish mumkin" degan edilar. Darhaqiqat iqtisodiyotda uzluksiz ishlab chiqarish va sotish jarayonini yo'lga qo'yish har bir mamlakat rivojining asosi hisoblanadi. Buning uchun Tovar-pul munosabatlarini chuqur bilish, tovar operatsiyalari hisobini sinchiklab o'rganish talab yetiladi. Biz quyida o'rganadigan mavzuning dolzarbligi ham ana shunda. O'zbekistonlik va xorijiy olimlar, muttaxassislar, jumladan,

Dustmurodov R.D., Urazov K.B., Musayev X.N, Toshnazarov S.N., Sattarov A.Sh., Borisov Y.F va boshkalar uz ishlarida tovar – moddiy zaxiralar hisobiga keng tuxtalganlar, bu haqda ularning chop etilgan darsliklari, o'quv kullanmalari va makolalaridan bilib olish mumkin.

Kurs ishining bosh maqsadi tovar haqida tushunchaga ega bo'lib uning buxgalteriya hisobidagi o'rnini anglab, tovar operatsilari hisobini chuqur o'zlashtirishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqib, uni o'rganishda quyudagi vazifalarni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

1. Tovar operatsiyalari hisobining buxgalteriya obekti sifatida tavsifini ochib berish;
2. Tovar operatsiyalari hisobining maqsadi va vazifalarini o'rganish;
3. Ombordagi tovarlarning hisobini yuritilishi bilan tanishish;
4. Tovarlar harakatining hisobini o'rganish;
5. Tovar operatsiyalari hisobini yaxshilash yo'llarini topish.

Kurs ishining uslubi va uslubiyati: kurs ishida buxgalteriya hisobiga oid qonunlar, qarorlar, Prezident farmonlari va nutqlari, turli adabiyotlar hamda boshqa meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalanilgan. Kurs ishining mazmuni yanada yaqinroq va tushunarli bo'lishi uchun chizmalardan diagrammalardan foydalanilgan.

Kurs ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: kurs ishida keltirilgan ma'lumotlardan kitoblar, maqolalar, tezislar yozishda foydalanish mumkin. Berilgan takliflardan xo'jalik yurutuvchi subektlar foydalansa, korxonaning kelgusida Tovar harakati faoliyati tartibga solinadi.

Kurs ishining predmeti va obekti: kurs ishining predmeti bo'lib korxonada tovar harakati va hisobini o'rganish, obekti esa masuliyati cheklangan **“SURXON DORI-DARMON” MCHJ** qo'shma korxonasi hisoblanadi.

Kurs ishining tarkibi: kurs ishi kirish qismi 2 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va korxona ma'lumotlari asosida tayyorlangan ilovalar keltirilgan.

I-BOB.TOVAR MODDIY BOYLIKLAR INVENTARIZATSIYASINING MOHIYATI, AHAMIYATI VA VAZIFALARI

1.1.Tovar moddiy zaxiralarining mohiyati, turkumlanishi va ularning korxona xo'jalik faoliyatidagi roli.

Hozirgi kunda turli mulkchilik shakllangan asosiy korxonalarda asosiy e'tiborni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarning rentabellik darajasini oshirish, tannarxni pasaytirish hamda pirovardida yalpi daromad, sof tushum hamda sof foydani ko'paytirishga qaratilgandir.

Hozirgi kunda kelib korxonalarda asosiy xarajatlar qismining oshishi, xarajatlarning oshishi esa korxonalarning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bizning vazifamiz ushbu yoziladigan bitiruv malakaviy ish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xarajatlar qismida tovar-moddiy zaxiralarining tutgan o'rni, tannarxga ta'siri, ulardan qay darajada foydalanishni tahlil qilib pirovardida o'zimizning xulosa va takliflarni berishdan iborat.


Tovar-moddiy zaxiralarning ishlatilishi, ishlab chiqarish jarayonida yangi mahsulotga o'tkazilib yuborilishi, ularning harakatini hisobda to'g'ri aks ettirishimiz zarur.

Hozirgi kunga kelib tovar-moddiy zaxitalarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda oborot mablag'lari guruhida hisobga olib boriladi. Bularning aksi buxgalteriya balansi aktiv tomonida yuritiladi.

Tovar-moddiy zaxitalar ishlab chiqarish korxonalarda xarajatlar qismini asosini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar-moddiy zaxitalar holatini tahlil etganda quyidagi ko'rinishdagi sxemalarda baho berish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxitalarning uch turi mavjud (1-chizma).

Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy-uslubiy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida



mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar"¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya Hisobi Milliy standartlari O'zBAMA nashriyot-axborot markazi, - Toshkent, 2007. - 198 b

1-chizma. Tovar-moddiy zaxiralar turlari.

2- chizma. Maqsadiga qarab tovar-moddiy zaxiralarning toifalari.

Tovar-moddiy zaxiralar 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

1. mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;

2. boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;

v) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yiqilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi; g) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar)

keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

"Inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:"²

1. xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;
2. qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Tashkilot rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblari va moslamalar);
 2. maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal; v) ko'rpa-to'shaklar;
- g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va hokazo);
- d) oshxona inventari, shuningdek sochiq-dasturxonlar;

² BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2006- yil 17-iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

e) ularni barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulda bo'lmagan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;

j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar; z) ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, anjomlar, matraplar va hokazo).

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri va to'laqonli tashkil etish maqsadida ularni ilmiy asoslangan tasnifi va baholanishi muhim ahamiyatga ega.

Egalik qilish xususiyatiga muvofiq, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari tashkilotga egalik huquqi hamda xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bo'yicha tegishli (xususiy) va unga ushbu huquqlar bo'yicha tegishli bo'lmagan (xususiy bo'lmagan) boyliklarga bo'linadi.

Tashkilotlarga tegishli bo'lgan tovar-moddiy boyliklarga u tomondan tayyorlangan, sotib olingan yoki boshqa shaklda olingan boyliklar kiritilib, ular omborda yoki ishlab chiqarish jarayonida joylashgan bo'ladi.

Tashkilotga egalik huquqi va boshqa shunga o'xshash huquq bo'yicha tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlari bo'yicha uning ixtiyoridagi tovar- moddiy boyliklar kiritilib, ular alohida turlari bo'yicha balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.


Yuqorida keltirgan ta'rif va tavsiflarni o'rganish natijasida tovar-moddiy zaxiralarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining faoliyatiga xos quyidagi ta'rifni taklif etamiz.

Tovar-moddiy zaxiralar - bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq, saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun

mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.

Tovar-moddiy zaxiralari bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. tovar-moddiy zaxiralarini ularning mohiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;
2. tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri turkumlash va guruhlariga ajratish;
3. tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri baholash;
4. tovar-moddiy zaxiralariga qilingan qo'shimcha xarajatlarni (tashib keltirish, boj va soliq to'lovlari, kurs o'rtasidagi farqlar, ustamalar, sertifikatsiyalash va boshqalar) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida sotib olingan zaxiralar tannarxiga (qiymatiga) yoki korxona xarajatlariga kiritish;
5. tovar-moddiy zaxiralari holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida va tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirib hisobga olish;



3- chizma. Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash

6. tovar-moddiy zaxiralarga moddiy javobgarlikni ta'minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarning to'g'ri va o'z vaqtida tuzilishi, taqdim etilishini nazorat qilish;
7. tovar-moddiy zaxitalarining holati va harakati bo'yicha moddiy javobgar shaxslarning hisobot ma'lumotlari va hisob ma'lumotlarining to'liq uyg'unligini ta'minlash;

8. tovar-moddiy zaxiralarining butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;
9. mavjud tovar-moddiy zaxiralaridan unumli foydalanish, buning uchun omborlarda me'yoridan ortiq zaxiralarni saqlamaslik, ularni qo'shimcha nobudgarchiliklariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz materiallarni sotish va uning natijalarini to'g'ri hisobga olish;
10. tovar-moddiy zaxiralarini asosli ravishda qayta baholash va uning natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirish;
11. arzon baholi buyumlarning eskirishini to'g'ri hisoblash, to'liq eskirgan buyumlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish, ularni balans qiymatini hisobotda to'g'ri aks ettirish;
12. moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;
13. materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;
14. mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan tmzlarni kalkulyasiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash.


Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik mulkiga egalik qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlariga qarab tovar-moddiy zaxiralarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. xom-ashyo va asosiy materiallar;
2. yordamchi materiallar;

3. yoqilg'i ehtiyot qismlar;
4. idish va idish materiallari;
5. sotib olingan tayyor mahsulotlar;
6. qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari;
7. boshqa materiallar.

Tovar-moddiy zaxiralarini holatini o'rganishda hisobni yuritilishiga alohida e'tibor berish kerak. Qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom hamda buxgalteriya hisobida qabul qilingan xalqaro va milliy standartlarda tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan savollar o'z yechimini topgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning quyidagi guruhlari mavjud (4-chizma).



4-chizma. Tovar-moddiy zaxiralarning asosiy guruhleri.

Materiallarni buxgalteriya hisobida to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSga asoslangan bo'lishi lozim. Ushbu standartga muvofiq materiallar eng kam bahoda, ya'ni tannarxi bo'yicha yoki sof sotish qiymatida hisobga olinishi lozim. Chunki buxgalteriya hisobining ehtiyotkorlik tamoyilini aks ettirishning biri bo'lib past baholash qoidasi hisoblanadi: tannarx bo'yicha yoki sotishning sof qiymati.

Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish jarayonida ular quyidagi tartibda, ya'ni tovar-moddiy zaxiralar quyidagilarning eng kam qiymati bo'yicha baholanadi:

1. tannarx bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki moddiy zaxiralarning xarid bahosiga transport-tayyorlov sarflari qo'shilgan holda;
2. sof realizasiya qiymati bo'yicha kelishilgan bahodan ularni sotishga tayyorlash va sotish bilan bog'liq sarflarni chegirandan keyin qolgan qiymatda.

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarx bo'yicha baholash tartibida tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi: a) tovar-moddiy zaxiralarining sotib olish xarajatlari, jumladan, xarid qiymati (schiyot-fakturada ko'rsatilgan summadan xarid chegirmalarining ayirmasi), bojxona to'lovlari va boshqa soliqlar (qoplashga mo'ljallanganlarning ayirmasi bilan), fraxt qiymati (yuklash, tushirish ishlari va tovarning yo'ldagi sug'urtasini hisobga olgan holda), xarid bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlardan;

b) qayta ishlash xarajatlari va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlardan, jumladan:

1. Xom-ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirishda stanok va asbob- uskunalarda bevosita band bo'lgan ishchilarning mehnat haqini to'lash va ijtimoiy sug'urtalash xarajatlari;
2. Xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarishning ustama xarajatlarni doimiy tartibda taqsimlashdan iborat.

v) joriy davrda TMZni tayinlangan joyga eltib berish uchun transportirovka yoki ularni kerakli holatga keltirish jarayonida (tayyor mahsulotni omborga olib

borish, tovarni shaxsiy buyurtmalar asosida bichish va yig'ish xarajatlari va boshqalar) sarflangan boshqa xarajatlar.

Odatda buxgalteriya hisobi va soliq solish amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish qiymati (yetkazib beruvchi to'lanadigan summalar) va ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga (ya'ni sotib olish qiymatiga) quyidagilar kiradi:

1. boj to'lovlari va yig'implari;
2. bir birlik tovar-moddiy zaxira sotib olishdagi soliqlar va yig'implar summasi (agar ular korxonaga qoplanmasa);
3. tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachi korxonalarga to'lanadigan komission mukofotlar;
4. tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatsiya qilish va ularni sotib olish bilan bog'liq texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkazish bo'yicha xarajatlar;
5. tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ulardan kundalik foydalanish manziliga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar. Ularga transport-tayyorlov xarajatlari, yuklash-tushirish ishlari uchun tariflarni to'lash (fraxt) hamda tovar-moddiy zaxiralarni kundalik foydalanish joyiga transportirovka qilish, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni transportirovka qilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar kiradi;
6. tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishga bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish xarajatlari ularni paydo bo'lishini tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlarga asosan aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini hisoblash usullari quyidagilardan tashkil topgan:

1. yalpi identifikasiya usuli, aniq xarajatlarga asoslangan bo'lib o'zaro almashtirilmaydigan konkret birliklari maxsus individual buyurtmalar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot, tovarlar va xizmatlarning tannarxini hisoblash uchun qo'llaniladi.

2. o'rtacha tortilgan qiymat usuli - TMZ har bir birligining qiymati hisobot davrining boshida bir turli TMZ birliklari va hisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan bir turli TMZ birliklarining o'rtacha tortilgan qiymati bo'yicha aniqlanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butun qiymatini ushbu zaxiralar birliklarining soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

v) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO - birinchi kirim birinchi chiqim) birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotib yuborilgan tovarlarga olib borilishi kerak degan tartibga asoslangan.

g) oxirgi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli (LIFO) - oxirgi xarid qilingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlarning qiymatini aniqlash uchun, hisobot davrining oxiriga bo'lgan zaxiralarning tannarxi esa birinchi navbatda xarid qilingan tovarlarning tannarxi asosida hisobga olinadi, degan taxminga asoslangan.

Masalan: Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini hisoblash usullari.

"Bunyodkor Qurilish-Montaj" korxonasi yil davomida quyidagi TMZni xarid yil

oxirida omborxonada 400 birlik mahsulot bor edi. Realizasiyadan kelgan sof tushum 2500000 so'mni tashkil etdi.

1. Birinchi xarid narxlarida baholash usuli (FIFO) ni qo'llab, sotilgan mahsulotning tannarxini va davr oxiridagi zaxiralarga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-jadval

	Birliklarning hajmi	Mahsulot birligining bahosi	Umumiy qiymat
17 yanvar	600	1100 so'm	660 000 so'm
28 aprel	800	1200 so'm	960 000 so'm
9 sentabr	700	1500 so'm	1 050 000 so'm
Jami:	2100	-	2 670 000 so'm

Realizasiyadan tushgan daromad 2500000

Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi 2670000

Davr oxiridagi TMZ (400x1500 so'm) 600000

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 2070000

Realizasiyadan olingan yalpi foyda 430000

1. O'rtacha tortilgan qiymat usulini qo'llab, sotilgan mahsulotning tannarxini va hisobot davrining oxiridagi zaxiralarga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Tovar birligining o'rtacha hisoblangan qiymati (2670000/2100)	1271,4 so'm
Realizasiyadan tushgan daromad	2500000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2670000
Davr oxiridagi TMZ (400x1271,4)	508560
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	2161380
Realizasiyadan olingan yalpi foyda	338620.

2. Oxirgi xarid narxlarida baholash usuli (LIFO)ni qo'llab, sotilgan mahsulotlarning tannarxi va davr oxiridagi zaxiralarga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Realizasiyadan tushgan daromad	2500000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2670000
Davr oxiridagi TMZ (400x1100) tannarxi	440000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	2230000
Sotuvdan kelgan yalpi foyda	270000

2-jadval

Usullarni taqqoslash

Ko'rsatkichlar usullar	FIFO usuli	O'rtacha tortilgan qiymat usuli	LIFO usuli
------------------------	------------	------------------------------------	------------

Realizatsiyadan tushgan daromad	2500000	2500000	2500000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2670000	2670000	2670000
Davr oxiridagi TMZ tannarxi	600000	508560	440000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	2070000	2161380	2230000
Realizatsiyadan olingan yalpi foyda	430000	338620	270000

Tovar-moddiy zaxiralarni sof realizatsiya qiymati bo'yicha baholash. Tovar-moddiy zaxiralar shikastlanganda, qisman yoki butunlay eskirganda, komplektlashga yoki sotuvni tashkil qilish xarajatlari oshganda, sotuv narxi pasaygan holatlarda, tovar-moddiy zaxiralari o'z tannarxidan past bahoda realizatsiya qiymatida baholanishi mumkin.

Sof realizatsiya qiymati - tovar sotilishining taxminiy qiymatidan tovarlarni sotuv oldidan tayyorlash va uni sotish xarajatlarning ayirmasidir.

Tovar-moddiy zaxiralari sof realizatsiya qiymatigacha quyidagi usullar asosida qisman hisobdan chiqariladi:

1. moddalar bo'yicha usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralarining har bir turi baholanadi;
2. asosiy tovar guruhlarining usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralarining guruhi baholanadi;

v) zaxiralarning umumiy darajasi usuli - bunda hamma tovar-moddiy zaxiralari baholanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar xo'jalik sub'ektining o'zida tayyorlanganda ularning haqiqiy tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi qabul qilinadi, tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ular buxgalteriya hisobiga qabul qilingan haqiqiy tannarxi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi va tegishli standartda belgilangan holatlardan tashqari, o'zgartirilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ular buxgalteriya hisobiga qabul qilingan haqiqiy tannarxi tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholash natijasida o'zgartirilishi mumkin.

Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralarni baholash ularni tashkil etish va boshqarishning muhim dastlabki sharti hisoblanadi.

1.2.Tovar moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi mazmuni ,turlari va o'tkazish tamoillari

Buxgalteriya hisobining usullari korxona mulkining va majburiyatlarining holati va harakatini pul ifodasida aks ettiradi. Biroq, ushbu usullar korxona mulki va majburiyatlarining haqiqatda mavjud holatini aks ettira olmaydi.

Ushbu vazifani bajarish buxgalteriya hisobining **«inventarizatsiya»** nomli usuliga yuklatiladi.

«Inventarizatsiya» soʻzi qayta hisobdan oʻtkazishni bildiradi. Korxonaning mulkining haqiqiy holati ularni qayta sanoqdan oʻtkazish, oʻlchash, tortish, sanash yoʻllari bilan amalga oshiriladi. Ushbu muolajalar birgalikda inventarizatsiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasining zarurati va ahamiyati u tomonidan bajariladigan quyidagi funksiyalarda namoyon boʻladi:

Birinchidan, hisob maʼlumotlarida koʻrsatilgan tovar-moddiy zaxiralarning real borligini aniqlash va unga iqror boʻlish.

Ikkinchidan, tovar-moddiy zaxiralar boʻyicha javobgar shaxslarning oʻz funksional majburiyatlarini qay darajada sidqidildan toʻliq bajarayotganliklariga baho berish.

Uchinchidan, tovar-moddiy zaxiralar boʻyicha hisob maʼlumotlari va ularning haqiqatda mavjudligining oʻzaro muvofiqligini taʼminlash.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiya utkazishning oldindan kuzda tutilganligiga karab u ikki turga bulinadi:

1. **Rejali inventarizatsiya** – bu korxonaning moddiy javobgar shaxslarni navbatdagi mehnat taʼtiliga chiqarish rejasiga koʻra oʻtqaziladigan inventarizatsiya.

2. **Rejadan tashqari inventarizatsiya** – bu koʻzda tutilmagan hollarda, masalan favqulotdagi hodisalar yuz berganda (oʻgʻrilik, toshqin va shu kabi hodisalar sodir boʻlganda) oʻtqaziladigan inventarizatsiya.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasining harakterli xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi to'satdan o'tqaziladi, ya'ni moddiy javobgar shaxs uni o'tqazilishi to'g'risida oldindan xabar topmasligi lozim.
2. tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi rahbarning buyrug'i yoki farmoyishi bilan tasdiqlangan doimiy harakatdagi va ishchi inventarizatsiya komissiyalari tomonidan o'tqaziladi, ushbu komissiyaga moddiy javobgar shaxs albatta kiritiladi.
3. inventarizatsiya ma'lum muddatga o'tqaziladi, uning boshlanish va tugash vaqti buyruqda yoki farmoyishda ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
4. inventarizatsiyani o'tqazish belgilangan tartibda va usullarda amalga oshiriladi.
5. tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi natijalari maxsus sanoq va taqqoslash dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasining asosiy maksadi tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini aniklash, haqiqatda mavjud tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan kiyoslash hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish hisoblanadi.

Bundan tashkari, ishlab chikarish zaxiralari va xo'jalik yurituvchi sub'ektga karashli bo'lmagan, lekin buxgalteriya hisobida kayd etilgan (mas'uliyatli saklanishda bo'lgan, ijaraga olingan, kayta ishlash uchun olingan) boshka turdagi tovar-moddiy zaxiralar, shuningdek, biror-bir sababga ko'ra hisobga olinmagan tovar-moddiy zaxiralar inventarlanishi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi uning joylashgan yeri va moddiy javobgar shaxs bo'yicha o'tkaziladi.

19-son BXMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va utkazish"ga muvofik quyidagi xollarda tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi majburiy xolda o'tkaziladi:

6. tovar-moddiy zaxiralar ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, davlat korxonasi o'zgartirilgan (davlat tasarrufidan chikarilgan) chojda konunchilikda nazarda tutilgan xollarda;

7. yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi hisobot yilining 1 oktyabridan kechiktirmay o'tkaziladigan tovar-moddiy zaxiralardan tashkari.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 28.08.98 yilda 486-son bilan ro'yxatga olingan "Tovar-moddiy zaxiralar" deb nomlangan 4-son BXMSGa binoan tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta inventarlanadi.

Ayrim joylar va mavsumiy tusda ishlaydigan korxonalarda ishlab chikarish zaxiralari ular eng kam mikdorda kolganda quyidagi xollarda inventarlanadi:

8. asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar kayta baxolanganda;

9. moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni kabul kilish - topshirish kunida);

10. o'g'irlik yoki suiste'mol, shuningdek, boyliklarni ishdan chikarish faktlari aniklanganda;

11. tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki jayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshka favkulodda vaziyatlar yuz berganda;

12. xo'jalik yurituvchi sub'ekt tugatilganda (kayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va konunchilikda nazarda tutilgan boshka xollarda.

Umumiy (jamoaviy) moddiy javobgarlik sharoitida tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi jamoa raxbari o'zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortik a'zolari chikib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a'zosi talabi bilan o'tkaziladi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi komissiyalari a'zolari tovarlar, materiallar va boshka boyliklar kamomadi va ishlatib yuborgani yoki ortikcha chikkanini yashirish maksadida ro'yxatga boyliklarning haqiqatdagi koldiklari to'g'risida ataylab noto'g'ri ma'lumotlarni kiritganlik uchun belgilangan tartibga muvofik javobgarlikka tortiladilar. Mol-mulkning haqiqatdagi mavjudligini tekshirishni boshlashdan oldin inventarlash komissiyasi inventarlash paytidagi eng so'nggi kirim-chikim hujjatlarini yoki moddiy vositalar va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni olishi kerak.

II-BOB. TOVAR MODDIY ZAXIRALARNING HISOBI VA UNING INVENTARIZATSIYASINI TASHKIL ETISH

2.1.Tovar moddiy zaxiralarning ombor hisobi va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari

Korxonalarda barcha moddiy – javobgar shaxslar tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobini yuritadilar. Ombor hisobi natural (miqdor) ko'rinishda tovar-moddiy zaxiralarning nomi, navi, soni va baholari bo'yicha kartochkalarda yoki maxsus kitoblarda yuritiladi. Ushbu hisob registrlariga yozuvlar tovar-moddiy zaxiralarning kirimi va chiqimiga guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida qilinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobini yuritish ularni omborlarda saqlashning qabul qilingan usul(lar)iga bog'liq. Tovar-moddiy zaxiralar omborlarda, odatda, har bir kelib tushgan partiyalar yoki ularning nomlari, navlari, kelib tushish baholari bo'yicha saqlanadi. Ushbu belgilariga qarab tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobi partiyali va navli usullarda yuritilishi mumkin.

Baholarni erkinlashtirilishi, qat'iy sotib olish baholarini belgilanmaganligi hozirgi sharoitda korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobini asosan partiyali usulini keng qo'llashni taqoza etmoqda.

Partiyalar deganda tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan sotib olish baholarida turli ta'minotchilardan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar majmuasi tushuniladi. U yoki bu nomdagi kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar partiyasi omborda mavjud bo'lgan aynan shu nomdagi tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kiritilmaydi, balkim kelib tushgan partiyasi alohida saqlanadi. Bunga sabab shundaki, tovar-moddiy zaxiralar nomi, artikuli, navi bo'yicha bir xil

bo'lsada, lekin ular bir-biridan sotib olish baholari bilan farq qilishi mumkin. Ushbu tovar-moddiy zaxiralarni bir-biriga qo'shib yuborish keyinchalik ular ishlab chikarishga berilganda yoki sotilganda ishlab chikarish va sotish tannarxini va sotishdan olingan daromadni aniqlashda chalkamliklarga olib kelishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni partiyali hisobini yuritish uchun omborlarlarda har bir kelib tushgan partiyaga tasdiqlangan shakldagi «Partion karta» (MX-10) ochiladi. U ikki nusxada yuritiladi. Partion kartada tovar jo'natuvchining barcha kerakli rekvizitlari, ularni kirim hujjatining nomeri va sanasi, nomi, artikuli, navi, bahosi, soni, og'irligi ko'rsatiladi. Partion kartalar kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar partiyasi ishlab chikarishga berilib yoki sotilib bo'lganicha yuritiladi. Chikim kilingan tovar-moddiy zaxiraning soni (og'irligi) partion kartada chiqim hujjatlarining nomeri va sanasi bo'yicha ko'rsatiladi. Tovar partiyasi to'liq chikim kilingach, partion karta yopiladi, unga ushbu partiya bo'yicha me'yordagi tabiiy kamayish, buzilish, sinish, yo'qotishlar to'g'risidagi ma'lumotlar (agar shunday holat yuz bergan bo'lsa) ham yoziladi. Partion kartani yopilishiga ombor mudiri, ombor hisobchisi, buxgalteriya xodimi imzo chekadilar. Tovar-moddiy zaxiralar partiyalarini to'liq chikim bo'linganligi to'g'risida rahbar tomonidan tayinlangan komissiya tomonidan ikki nusxada maxsus tasdiqlangan shaklda «Tovarlar partiyalari bo'yicha chiqimlar to'g'risida dalolatnoma» (MX-12) tuziladi. Dalolatnomaning bir nusxasi partion kartalarning bir nusxasi bilan birgalikda buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi esa partion kartalarning ikkinchi nusxasi bilan birgalikda ombor mudirida qoladi. Omborda qolgan partion kartalar tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobi registri hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni saqlashning navli usulini faqat doimiy ta'minotchilardan shartnomalarga asosan bir maromda va o'zgarmas baholarda kelib tushayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha qo'llash mumkin.

Ushbu usulda kelib tushgan yangi tovar-moddiy zaxiralar oldindan omborda mavjud bo'lgan shu nomdagi, navdagi, bahodagi tovar-moddiy zaxiralar safiga kiritiladi. Bir xil nomdagi, navdagi, bahodagi tovar-moddiy zaxiralarga alohida kartochka yoki ombor kitobida ma'lum sahifalar ajratiladi. Ushbu registrlarga yozuvlar kirim va chiqim hujjatlari bo'yicha olib boriladi. Har bir yozuvdan so'ng tovar-moddiy zaxiralarning qoldig'i chiqarib boriladi. Tovar-moddiy zaxiralarning ombor hisobi kartochkalari va kitobi quyidagi shaklda yuritiladi. Kamida bir marta har oyda ombor hisobi kartochkalari yoki kitobi ma'lumotlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanib borilishi lozim. Buning uchun ombor hisobi kartochkalarining kirim va chiqim, shuningdek davr boshi va oxiridagi qoldig'i bo'yicha jamlangan ma'lumotlar asosida tasdiqlangan shaklda «Tovar-moddiy boyliklarning saqlash joylaridagi qoldiqlari hisobi qaydnomasi» (MX-19) tuziladi. Ushbu qaydnoma korxonalar buxgalteriyasida tovar-moddiy boyliklarning hisobining «operativ-buxgalterlik (qoldiq)» usulida yuritiladi, yani unda har bir tovar bo'yicha bosh qoldiq, kirim va chiqim ma'lumotlari soniy va summaviy ko'rinishda jamlangan holda hisob baholari bo'yicha aks ettiriladi. Qaydnomaning bosh va oxirgi qoldiq, kirim va chiqim bo'yicha jami ma'lumotlari ombor mudirlari tomonidan tuzilgan va buxgalteriyaga topshirilgan tovar hisobotlarining mos ravishda bosh va oxirgi qoldiq, kirim va chiqim to'g'risidagi ma'lumotlariga mos bo'lishi kerak.

Korxonalarning ombor mudirlari belgilangan muddatlarda «Tovar-moddiy zaxiralar hisoboti»ni tuzishlari va buxgalteriyaga taqdim etishlari lozim. Tovar-moddiy zaxiralar buyicha operatsiyalar ko'p bo'lgan korxonalarda ushbu hisobot, odatda, har kuni tuziladi. Hisobotning ko'p betlik bo'lib ketmasligi uchun unga kiritilgan tovarlarning kirim va chiqim boshlang'ich hujjatlari bo'yicha alohida reestrlar tuzish, ushbu reestrlarning umumiy summalarini mos ravishda hisobotning kirim va chiqimida bir qatordan aks ettirish, shuningdek

ushbu reestrlar va boshlang'ich hujjatlarni hisobotga ilova qilishga ruxsat beriladi.

Tovar hisobotlari va ularga ilova qilinadigan kirim va chiqim hujjatlarining reestrlari ikki nusxada tuziladi. Tovar hisobotiga ombor mudiri (brigadir) va navbat bilan moddiy javobgar shaxslar brigadasining a'zolaridan biri imzo chekadi. Hisobotning birinchi nusxasi unga ilova qilingan reestrlar va boshlang'ich hujjatlar bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

Biz tadqiqot olib borgan «Surxon-Dori-Darmon» MCHJning asosiy faoliyati dori-darmonlar savdosi hisoblanadi. Shunga mos ravishda MCHJ tovar-moddiy zaxiralari ham asosan tovarlardan iborat (3-jadval).

3-jadval

«Surxon-Dori-Darmon» MCHJ tovar moddiy zaxiralarining 01.01.2014 yil holatiga tarkibi

No	Kursatkichlar	Summasi, sum	Salmogi, %
1	Ishlab chikarish zaxiralari	3704,6	0,08
2	Tugallanmagan ishlab chikarish	-	-
3	Tayyor mahsulotlar	-	-
4	Tovarlar	4704969,9	99,02
	Jami TMZlar	4708674,5	100,0

«Surxon-Dori-Darmon» MCHJda tovarlar asosan chakana savdoda, ya'ni dorixonalarda saklanadi va ularga moddiy javobgar shaxslar bulib aloxida dorixona mudirlari hisoblanadi. Dorixona mudirlari har oyning oxirgi kuniga uzlarining javobgarligidagi dori-darmonlarning koldigi va harakati to'g'risida hisobot topshiradilar (ilovaga qarang).

«Surxon-Dori-Darmon» MCHJning buxgalteriyasida tovar hisobotlari quyidagi tartibda tekshiriladi va ishlovdan o'tadi.

1.Hisobot davri (kuni) boshidagi dori-darmonlarning qoldig'i oldingi davr (kun) uchun tuzilgan hisobot davri (kuni) oxiridagi dori-darmonlarning qoldig'i

bilan taqqoslanadi. Ular o'rtasida farqni bo'lishi hisobotni noto'g'ri tuzilganligi to'g'risida guvohlik beradi.

2.Barcha kirim va chiqim hujjatlarini hisobotning mos ravishda kirim va chiqim bo'limlarida to'g'ri aks ettirilganligi yoki ushbu kirim va chiqim hujjatlarni kirim va chiqim hujjatlari reestrida to'g'ri aks ettirilganligi, reestrlarning umumiy summalarini hisobotda to'g'ri ko'rsatilganligi tekshiriladi.

3.Hisobotning kirim va chiqimining jami summalarining to'g'riligi tekshirib chiqiladi.

4.Hisobotda davr oxiridagi dori-darmonlarning qoldig'ini to'g'ri hisoblanganligi va ko'rsatilganligi tekshirib chiqiladi.

5.Hisobotga ilova qilingan dori-darmonlar kirimiga oid schyot-fakturalar (ilovaga karang), sotilganligiga oid inkassator cheklari va terminal inkassatsiyasi hujjatlari asosida kirim va chikim kilingan dori-darmonlar summolari to'g'ri ko'rsatilganligi tekshiriladi.

Buxgalterlik tekshiruvidan o'tgan tovar hisoboti MCHJ rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan hisobot dori-darmonlarning buxgalteriyada sintetik va analitik hisobi registrларini yuritishga asos bo'ladi. Hisobotning buxgalter tomonidan qabul qilib olganligi va tekshirganligi to'g'risida imzosi qo'yilgan va rahbar tomonidan tasdiqlangan ikkinchi nusxasi ombor mudiriga qaytariladi.

2.2.Tovar moddiy zaxiralari inventarizatsiyasi natijalarini rasmiylashtirish va xisobga olish tartibi

Korxonalarning buxgalteriya hisobi va hisoboti malumotlarining to'g'riligi ularning ishlab chiqarish zaxiralari inventarizasiya qilish bilan tasdiqlanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizasiya qilish "Inventarizasiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS va "Tovar- moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi yukoridagi paragrafda ta'kilaganimizdek, raxbar buyrugi bilan tasdiklangan bir martalik yoki doimiy komissiya tomonidan utkaziladi. Shuningdek, inventarizatsiya rejali bulmasa, inventarizatsiyani utkazish to'g'risida ham raxbar buyrugi chikishi lozim.

Inventarizatsiya natijalari korxona rahbari, bosh buxgalteri va inventarizatsiya komissiyasi raisi tomonidan imzolanadigan "Inventarizasiya jarayonida aniqlangan natijalar vedomosti"da umumlashtiriladi. Ushbu vedomostda tovar-moddiy zaxiraning har bir turi bo'yicha inventarizasiya natijasida aniqlangan farqlar kamomad va ortiqchalar summalari va shuningdek aniqlangan kamomadlar summasini olib borish tartibi: turli sortlar bo'yicha o'zaro qoplash, tabiiy kamayish me'yorlari miqdorida hisobdan chiqarish, aybdor shaxslar hisobiga olib borish va boshqa operasion xarajatlarga hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

O'rtacha oylik ish haqi hajmidan ortiq bo'lmagan miqdorda yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirilishi ish beruvchining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday farmoyish yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi lozim.

Bunda yetkazilgan zarar qiymati inventarizasiya o'tkazilgan davrda mazkur joyda amal qilayotgan bozor narxlar bo'yicha hisoblanadi.

Agar xodimdan undirilishi lozim bo'lgan yetkazilgan zarar summasi uning o'rtacha oylik ish haqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, yetkazilgan zararining undirilishi sud orqali amalga oshiriladi.

Ish beruvchining tovar-moddiy zaxiralari o'g'irlanganda, kam chiqqanda, qasddan yo'qotish yoki qasddan buzish natijasida hamda boshqa hollarda yetkazilgan zarar qiymati bozor bahosi bo'yicha hisoblanadi.

Inventarizasiya jarayonida aniqlangan tovar-moddiy zaxiraning bozor bahosini aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish numkin:

1. ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan va ularning rasmiy dillerlaridan, tovar xom-ashyo, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
 2. Markaziy bankning kamomad (ortiqcha) aniqlangan sanadagi va tegishli tovar-moddiy zaxirani sotib olish sanasidagi kurslarning nisbati shaklida aniqlangan hisob-kitob koeffisientini qo'llagan holda sotib olish sanasidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda) tovar-moddiy zaxiralarning erkin konvertasiyalanadigan valyuta (EKV)dagi qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- v) tegishli davlat idoralarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- g) inventarizasiya o'tkazilayotgan davrda ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan narx darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar; d) tegishli mol-mulkning qiymati to'g'risida baholovchining ekspert xulosasi.

Inventarizatsiya qilish natijasida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hujjatlardagi ma'lumotlar va haqiqiy qoldiqlar orasida farq solishtiruv qaydnomasida rasmiylashtiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar doirasida tabiiy kamayishi, korxona rahbari ko'rsatmasi bo'yicha tegishli xarajatlarga o'tkaziladi. Suiiste'mol qilishlar oqibatida yo'l qo'yilgan kamomad va yo'qotishlar aniqlangan taqdirda tegishli hujjatlar kamomad aniqlangandan so'ng 5 kun ichida tergov organlariga oshirilishi lozim, aniqlangan kamomad summasiga esa fuqarolik da'vosi qo'zg'atiladi.

Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar bo'yicha ko'rilgan zararlar foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaga "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom" ning 1 - ilovasiga binoan kiritiladi.

Biz tadkikot olib borgan «Surxon-Dori-Darmon» MCHJda ham rejali va rejadan tashkari inventarizatsiyalar utkaziladi. Jumladan, MCHJ raxbarining 2014 yil 11 dekabrda 73-T sonli buyrugi asosida MCHJga karashli 98-son dorixona 2014 yilning 12 dekabr kuni inventarizatsiyadan utkazilgan. Buyrukka asosan inventarizatsiya komissiyasiga kuyidagilar kiritilgan: raisi - MCHJ ichki nazorat bulimi boshligi J.Turayev, 7-son dorixona hisobchisi D.Xidirova va 98-son dorixona mudiri Sh.Nurboboyev.

Inventarizatsiya inventarizatsiya ruyxati asosida utkazilgan (ilovaga karang). Inventarizatsiya ruyxatida inventarizatsiya utkazilgan joy, sana, moddiy javobgar shaxs bulmish – 98-son dorixona mudiri Sh.Nurboboyevning barcha kirim va chikim hujjatlarini buxgalteriyaga topshirganligi hamda inventarizatsiya natijasini tasdiklovchi tilxati, inventarizatsiyaning boshlanish va tugash vakti, inventarizatsiya moboynda aniklangan tovar birliklari soni va

summasi, shuningdek, inventarizatsiya kilingan tovarlar birma – bir aks ettirilgan.

Jami 608 xil turdagi dori vositalari inventarizatsiyadan utkazilgan va jami 13 687 sumlik kamomad aniklangan. Aniklangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxsdan tushuntirish xati olingan. Tushuntirish xatida kamomad dorixona mudirining uzi tomonidan kasalligi uchun ishlatilganligi va uning urnini koplashini taxkidlab utgan (ilovaga karang).

Utkazilgan inventarizatsiya natijasi buyicha takksolama dalolatnoma tuzilgan (ilovaga karang).

Aniklangan kamomadga MCHJ buxgalteriyasida quyidagicha buxgalteriya yozuvi berilgan:

Dt	Kt	Summa
4730	2920	13 687,0

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan (ortiqcha) tovar-moddiy zaxiralari aniqlangan sanadagi aynan shunga o'xshash tovar- moddiy zaxiralarining bozor qiymati bo'yicha baholanadi (ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar keyinchalik aniqlanadi) va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet "Tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar" (1000-2900); kredit 9390 "Boshqa operatsion daromadlar" schyoti.

Aybdor shaxslar yoki moddiy javobgar shaxslardan kamomad summaning undirib olinishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi: debet "Pul

mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar" (5000, 5200, 5600,5700) yoki "Mehnat haqi bo'yicha xodim hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar" (6700), yoki boshqa aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar; kredit 4730 "Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi" schyoti «Korxona buxgalteriyasida tovar-moddiy zaxiralarning kirim-chiqimlari xususidagi barcha birlamchi hujjatlar: manzil belgilari, imzolar, summalar va amalga oshirilgan tadbirlarning qonunga to'g'ri kelish-kelmasligi tekshiriladi».

Kirim orderlaridagi yozuvlar tegishli to'lov hujjatlari, schyot-fakturalar, yukxatlar va boshqa hujjatlar bilan solishtiriladi. Noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar qayta ko'rib chiqish uchun qaytariladi.

Buxgalteriyada tekshirishdan o'tkazilgan hujjatlar taksirovka qilinadi, ya'ni material miqdori uning narxiga ko'paytirilib, hujjat bo'yicha umumiy summa aniqlanadi. Keyin barcha kirim-chiqim hujjatlari omborlar, jamlama hisobvaraqlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi, bu guruhlar esa hisob narxi bo'yicha kichik guruhlariga bo'linadi. Bu hujjatlarning yakunlari M-43 shaklidagi materiallarning jamlama hisobi jamg'aruv qaydnomasiga yozib qo'yiladi.

XULOSA

Tovar-moddiy zaxiralarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda oborot mablag'lari guruhida hisobga olib boriladi. Bularning aksi buxgalteriya balansi aktiv tomonida yuritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar - bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq, saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.

«Inventarizatsiya» so'zi qayta hisobdan o'tkazishni bildiradi. Korxonaning mulkining haqiqiy holati ularni qayta sanoqdan o'tkazish, o'lchash, tortish, sanash yo'llari bilan amalga oshiriladi. Ushbu muolajalar birgalikda inventarizatsiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasining zarurati va ahamiyati u tomonidan bajariladigan quyidagi funksiyalarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, hisob ma'lumotlarida ko'rsatilgan tovar-moddiy zaxiralarning real borligini aniqlash va unga iqror bo'lish.

Ikkinchidan, tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha javobgar shaxslarning o'z funksional majburiyatlarini qay darajada sidqidildan to'liq bajarayotganliklariga baho berish.

Uchinchidan, tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hisob ma'lumotlari va ularning haqiqatda mavjudligining o'zaro muvofiqligini ta'minlash.

Biz tadqiqot olib borgan «Surxon-Dori-Darmon» MCHJning asosiy faoliyati dori-darmonlar savdosi hisoblanadi. Shunga mos ravishda MCHJ tovar-moddiy zaxiralari ham asosan tovarlardan iborat.

«Surxon-Dori-Darmon» MCHJda tovarlar asosan chakana savdoda, ya'ni dorixonalarda saklanadi va ularga moddiy javobgar shaxslar bulib aloxida dorixona mudirlari hisoblanadi. Dorixona mudirlari har oyning oxirgi kuniga uzlarining javobgarligidagi dori-darmonlarning koldigi va harakati to'g'risida hisobot topshiradilar.

«Surxon-Dori-Darmon» MCHJda ham rejali va rejadani tashkari inventarizatsiyalar utkaziladi. Jumladan, MCHJ raxbarining 2014 yil 11 dekabrda 73-T sonli buyrugi asosida MCHJga karashli 98-son dorixona 2014 yilning 12 dekabr kuni inventarizatsiyadan utkazilgan. Buyrukka asosan inventarizatsiya komissiyasiga kuyidagilar kiritilgan: raisi - MCHJ ichki nazorat bulimi boshligi J.Turayev, 7-son dorixona hisobchisi D.Xidirova va 98-son dorixona mudiri Sh.Nurboboyev.

Inventarizatsiya inventarizatsiya ruyxati asosida utkazilgan (ilovaga karang). Inventarizatsiya ruyxatida inventarizatsiya utkazilgan joy, sana, moddiy javobgar shaxs bulmish – 98-son dorixona mudiri Sh.Nurboboyevning barcha kirim va chikim hujjatlarini buxgalteriyaga topshirganligi hamda inventarizatsiya natijasini tasdiklovchi tilxati, inventarizatsiyaning boshlanish va tugash vakti, inventarizatsiya moboynda aniklangan tovar birliklari soni va summasi, shuningdek, inventarizatsiya kilingan tovarlar birma – bir aks ettirilgan.

Jami 608 xil turda 9 dori vositalari inventarizatsiyadan utkazilgan va jami 13 687 sumlik kamomad aniklangan. Aniklangan kamomad uchun moddiy javobgar shaxsdan tushuntirish xati olingan. Tushuntirish xatida kamomad

dorixona mudirining uzi tomonidan kasalligi uchun ishlatilganligi va uning urnini koplashini taxkidlab utgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T. «O'zbekiston», 2008. - 40 b.
2. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida». 1996 yil 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori. 1999 yil 5 fevral. №54.
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.-T.: O'zbekiston iqtisodchilar uyushmasi, 1994.–1-2-3 qismlar.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-itisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 bet.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: O'zbekiston, 2010.- 77 bet.
7. Buxgalterskiy uchët i audit. 500 voprosov i otvetov. Seriya «Uchebniki, uchebnie posobiya». - Rostov n / D: Feniks, 1999. - 448 s.
8. Buxgalterskiy uchët v usloviyax rinochnoy ekonomiki O'zbekistana. T.2 / Itkin Yu.M., Gadoyev E.F., Sotivaldiyev A.S., Tulaxadjayeva M.M.–Tashkent, 2000. - 262 b.
9. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi.–T.: Sharq, 2004. – 592 b.
10. Musayev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003. - 179 b.
11. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: Xalqaro va milliy jihatlar. Monografiya. - T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 168 b.

12. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish.—T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004.—336 b.
13. Urazov K. B. Buxgalteriya hisobi va audit: Oliy o'quv yurtlari uchun.— T.: O'qituvchi, 2004. —448 b.
14. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. - T.: Fan, 2005. -236 b.
15. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. 1-qism. Ma'ruza matni. — Samarqand, SamISI, 2004. - 228 b.